



Types of Representational Devices in the Chinese Translation of the Work “There Is Light, There Is Shadow”

Dildora UMAROVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

10 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

Artistic language,
visual means,
artistic expression,
imagery,
artistic translation,
image tools in translation.

ABSTRACT

As the most important features of artistic language, we have highlighted imagery and emotionality. The means used for the vivid depiction of the subjects in an artistic work and for the expressive portrayal of feelings and experiences are collectively referred to as "means of artistic depiction and expression". As noted in the article, these means are not the defining characteristics of artistic language but rather elements that enhance imagery and emotionality, which in turn are its key attributes.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6/S-pp215-219>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“Nur borki, soya bor” asarining xitoycha tarjimasida tasvir vositalarining turlari

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

badiiy til,
tasviriyy vosita,
badiiy ifoda,
obrazlilik,
badiiy tarjima,
tarjimada tasvir vositalari.

Badiiy tilning eng muhim xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni koʻrsatdik. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuygʻu va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar umumlashtirilib, “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb ataladi. Avvalgi faslda aytilganidek, badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat boʻlmish obrazlilik (tasviriylilik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir.

¹ Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages. E-mail: dildoraumarova828@gmail.com

Типы изобразительных средств в китайском переводе произведения «Где есть свет, есть тень»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

художественный язык,
изобразительное
средство,
художественное
выражение,
образность,
художественный перевод,
изобразительные средства
в переводе.

В качестве важнейших особенностей художественного языка нами выделены образность и эмоциональность. Средства, служащие для живого изображения предметов художественного произведения и яркого выражения чувств и переживаний, обобщенно именуются «средствами художественного изображения и выражения». Как отмечалось в статье, эти средства не являются определяющими чертами художественного языка, а выступают в качестве элементов, усиливающих образность и эмоциональность, которые, в свою очередь, являются его ключевыми характеристиками.

Badiiy asarda muallif o'z muddaosini ro'yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg'uni his etishi, ko'rish, eshitish mumkin bo'lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblanadi, asarda so'z va iboralarning turli ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo'llar bilan ifodalash usullari – ifodaviy vositalar sanaladi.

Badiiy tarjimada tasvir vositalarining qayta yaratilishi va bunda so'z tanlash muammosi tarjimondan zo'r mahorat talab etadi. "Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya'ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to'laroq ifodalash tashvishida yonadi" – deb yozadi G'aybullay Salomov.

Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og'ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to'laqonli bo'lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi. Badiiy obrazning metaforiklik bilan chambarchas bog'liq yana bir muhim xususiyati assotsiativlik hisoblanadi. Aslida assotsiativlik – umuman inson tafakkuriga xos xususiyat. Zero, tashqi olam ta'sirida ongimizda biror narsaning aksi paydo bo'lishi hamono u bilan bog'liq assotsiatsiyalar ham uyg'onadi. Masalan, "qish" deyilishi bilan xayolimizda assotsiativ tarzda "qor", "sovuq", "po'stin", "chana" kabi u bilan bog'liq tushunchalar gavdalanadi. Umuman tafakkurga xos bu xususiyat obrazli tafakkurda yuksak darajada namoyon bo'ladi, deyishimizning sababi shundaki, reallikda ko'rilgan bir narsa san'atkor xayolida butunlay boshqa bir narsani, u bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmagan narsani uyg'otishi mumkin. Jumladan, yuqorida ko'rib o'tilgan misollarda metaforiklik assotsiatsiyalar asosida yuzaga chiqqan. Masalan, *sassiq hovuzdagi baliq* assotsiativ tarzda biqiq muhitdagi inson bilan mazmuniy bog'lanadi.

Semantik satxdagi og'ishlar. Ma'lumki, nutq jarayonida biz so'zlarni o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. So'zning odatiy ma'nosidan o'zga ma'noda qo'llanishi semantik satxdagi og'ish sanaladi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning umumiy nomi trop (ko'chim) deb yuritiladi. So'z ma'nosi ko'chishining, tropning

metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari mavjud. Badily asarda qo'llanilgan ko'chimlar ishlatilish jiddiy farqlanadi: darajasi, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirchanlik darajasi kabi jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

a) ko'chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan, "kun botdi", "soat yuryapti" kabi birikmalarda so'z ma'nosi ko'chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko'nikib ketganmizki, hozirda ularga ko'chim sifatida qaramaymiz ham. Badily asar matnida mazkur ko'chimlar qo'llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik satxda og'ishga yo'l qo'ygan deya olmaymiz, zero, ular yozuvchi tomonidan tayyor holda olingan. Baski, bu xil ko'chimlar matnda estetik funktsiya bajarmaydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo'lmaydi;

b) asar matnida badiiy adabiyotda an'anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko'chimlar ham kop uchraydi. Masalan, "shakar lab", "gul yuz", "bulbul", "sarvqomat", "qoshi kamon" va hokazo. Bu xil ko'chimlar ham yuqoridagilar singari tayyor holda olinadi, biroq ulardan farqli o'laroq, matnda estetik funktsiya bajaradi: tasviriylilikni, ifodaviylilikni kuchaytiradi;

v) badiiy-estetik funktsiyadorligi, tasviriylilik va ifodaviylilikni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko'chma ma'noda qo'llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq, dunyoga kelgan ko'chimlar alohida o'rin tutadi. Ularni shartli ravishda "xususiy muallif ko'chimlari" deb atashimiz mumkin. Shu xildagi ko'chimgina yozuvchining muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab yo'l qo'ygan semantik satxdagi og'ishi natijasi bo'lib, uning badiiy til bobidagi mahorati xususida gap borganda biz, avvalo, shu xil ko'chimlarni e'tiborga olishimiz kerak bo'ladi.

Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma'no ko'chishida narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin. Yashirin o'xshatish deb atalishiga sabab metaforada o'xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o'xshayotgan narsa uning ma'nosini bildiradi. Tabiiyki, bunda o'xshatilayotgan narsalardan aynan o'xshashlik talab qilinmaydi, ikki narsa hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, "oltin kuz", "oltin davr" birikmalarining birinchisida "rang", ikkinchisida "qimmat" asos uchun olingan. Keltirilgan misol metaforaning eng sodda ko'rinishlaridan bo'lib, quyida o'xshashlik aloqalari birmuncha murakkabroq namoyon bo'luvchi xususiy muallif metaforalaridan bir nechasini mushohada qilib ko'ramiz.

Jaranglaydi jarangsiz kumush satrlarida metaforaning ma'no assotsiatsiyalari yanada kengroq. Ma'lumki, qorning kumushga (rang o'xshashligi) o'xshatilishi ancha keng qo'llanadi. Shoir shu asosda "kumush"ning yana bir assotsiatsiyasini uyg'otadi: qorning yog'ishini "kumush tangalarning sochilishi"ga o'xshatadi (jaranglaydi jarangsiz kumush), go'yo kimdir hayri-ehson qilib tanga sochayotgandek. Xalqimizda "qor" yog'ishi to'kinlikdan, barakotdan deb bilinishi sizga ma'lum, albatta. Ko'ramizki, qor shoirning assotsiativ fikrlashida avvalo "kumush"ni, keyin xalqimizning maishly tafakkurida muqim o'rinlashgan fikrni uyg'otadi.

Albatta, bu o'rinda metaforaning ma'nosi turlicha tushunilishi, u turli o'quvchining ongida turlicha assotsiatsiyalarni uyg'otishi mumkinligi tabiiy. Parchadagi birinchi misra ikkinchisining anglanishiga asos bo'ladi. "Soqovning baqirig'"dagi dahshatli jihat shuki,

uni kamdan kam odam eshitadi, eshita oladi. Shunga o'xshash, qabrtoshlar ham bizni juda ko'p narsalardan ogoh etadi, faqat ularning baqirig'ini biz doim ham "eshitolmaymiz". Baqirig'ini yonidagi odam eshitmayotganini bilib turgan soqovning holatini tasavvur qilasiz-da, bizni ogoh etib unsiz baqirayotgan qabrtoshlar, ular ortidagi o'tganlar ruhini tasavvur etasiz. Va ayni shu nuqtada she'r dilingizni titratadi, boshda tushunarsizdek ko'ringan satrlar qatidagi ma'no ongingizga o'chmas bo'lib muhrlanadi.

Ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri metonimiyadir.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o'zining estetik funksiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo'lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo'llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Asl matnda – Ko'zini yumdi, qarshisida chol paydo bo'ldi, bu yerda cholning qiyofasi Sherzodning ichki qo'rquvi, xotirasi sifatida tashbeh qilinadi.

"Endi u nihoyat uyg'ondi va palatada yotganini tushundi. Bularning hammasi o'tib ketadi, lekin u qo'l va oyoqlarini qimirlata olmaydi. U hushida bo'lsa-da, lekin butun tanasi falaj bo'lsa ham, undan dahshatliroq tuyg'u yo'q". "Fal" ta'rifi orqali Sherzodning tushdagi ojizligi, haqiqatda esa ojizligi metaforadir.

Misol uchun:

隐喻 (Metaphor):

忆的具象化。“他闭上了眼睛,那个老人出现在他面前。”这里,老人的出现被隐喻为谢尔扎德内心恐惧和记

“现在他终于醒了,意识到自己躺在病房里。这一切都会过去但他的手和脚都不能动弹。虽然意识很清醒,但全身是瘫痪的原来没有比这个更可怕的感觉了。”通过“瘫痪”的描述,隐喻谢尔扎德在梦中的无助和现实中的无力感。

Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning markazida inson obrazi turadi. Negaki, borliqning o'zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, badiiy adabiyotning borliqni idrok etishida inson obrazining asosiy vosita bo'lishi ham tabiiy va qonuniydir. Tarjimada mavjud so'zlar emotsional bo'yoqdorligi nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Tarjimon yozuvchi tasvir predmetiga munosabatini ifodalash uchun mavjud so'zlardan keragini tanlashi zarur bo'ladi. Masalan: sinonim so'zlar qatoridan ijobiy bo'yoqdorlikka yoki salbiy bo'yoqqa ega so'zning tanlanishi yozuvchining tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifodalab berishi mumkin. Badiiy matnda ko'chimlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ularni ko'pchilik adabiyotlarda "troplar" deb yuritiladi. "Ko'chimlar deyilganda, adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman, ko'chma ma'noda ishlatilishi" nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi. Bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Tasviriy vositalarning deyarli barchasida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat tushuncha yotadi. Metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolaga, allegoriya, jonlantirish, prafraza kabi usullar ko'chimlarning turlaridir. Tarjimada uzatish jarayonida tarjimon

har qanday tarzda xabar tarkibini saqlab qolishi kerak. Chunki bu juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'nodir. Shu sababli, tarjimon ko'pincha tarkibni saqlab qolish uchun shaklni o'zgartirishga majbur bo'lishi mumkin, ammo agar o'sha ma'noni tarjima tilida yetkaza bera olsa yaxshi bo'ladi.

Tarjimada tarjimon o'zini faqat birinchi navbatda xayoliga kelgan so'zlar bilan cheklab qo'yganini ko'ramiz. U tarkibga qaraganda ko'proq shaklga e'tibor qaratadi. Shuningdek, so'zlar umumiy ma'noda ishlatiladi. Ammo bu sohaga mos va o'ziga xos ba'zi so'zlar va ekvivalentlar mavjud. Agar tarjimon uzatish jarayonida manba tilining lisoniy xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qilsa, bu milliy xususiyatga yoki madaniy pragmatik tarkibga olib kelishi mumkin. Misol uchun: 提喻 (Synecdoche):

“萨菲·萨基耶维奇把白色被子盖到下巴”这里,“白色被子”是部分代替整体,即用被子这一局部 代表床铺或睡眠环境,属于提喻。 birqancha birikmalar orqali ma'no ko'chishi qo'llanilgan. Bu birikmalar asarni chiroyli tasvirlab, ko'z oldimizda asardagi voqelarni jonlantirib berishga katta hissa qo'shgan.

Asar tarjimasida ushbu tasvir vositalarining bir qanchasi so'zma-so'z tarjima qilingan bo'lsa, ba'zilari esa shaklan o'zgartirilib, ma'nosini yetkazib bergan.

Masalan: 转喻 (Metonymy):

在文本中,没有明显的转喻使用。转喻通常涉及用一个事物代替与其密切相关的另一个事物, 但在此文本中未出现此类用法birikmasida badiiy tasvir vositalaridan biri metonomiya orqali ma'no ko'chishi qo'llanilgan. Ya'ni hujrada yashovchi aholi nazarda tutilgan bo'lib, aholi so'zi tushub qolishi orqali metonimiya qo'llanilgan. Tarjimada esa ko'chma ma'no ishlatilmagan. Ya'ni shaklan gap o'zgartirilib, aholi deb o'z ma'nosi berilgan. Tarjimon tanlagan ekvivalentlardagi farqlarni quyidagicha ko'rishimiz mumkin: Matnda metonimiyaning aniq qo'llanilishi yo'q. Metonimiya odatda bir narsani u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa narsa bilan almashtirishni o'z ichiga oladi.

Biroq ushbu matnda bunday foydalanish mavjud emas.

Asliyatda, tarjimon versiyasi, ekvivalentlik turi:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dastlab tarjimon asl matnning qaysi turiga e'tibor berish kerakligini aniqlab olishi kerak. Badiiy tasvir va ifoda vositalari mavzusiga to'xtalar ekanmiz, biz mavjud vositalarning hammasini ko'rib chiqishni maqsad qilmaganmiz. Zero, bu vositalarning har biri alohida mashg'ulot mavzusi bo'lish uchun yetarli material beradi. Yuqoridagi mulohazalar mazkur mavzuga kirish vazifasini o'tasa kifoya. Siz endi adabiyotshunoslikka oid lug'atlar, badiiy til xususiyatlariga oid ishlar bilan tanishish, badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonida til unsurlariga jiddiy etibor qilishingiz, biz to'xtalmagan yoki misollar keltirmagan vositalar mohiyatini mustaqil o'rganishingiz va o'zlashtirishingiz zarur boladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dimurod Quronov. Adabiyot nazaryasi asoslari. 2020. – 66b
2. Days Gone By. Abdulla Qadiri, translated by Carol Ermakova. Nouvtionseau Monde editions, Paris. 2012. – 5b.
3. Kunrov R. Uzbek tilining tasviriy vositalari. -Toshkent: Fan;1977. – 24 b.
4. Dilnoza Uloch qizi Halimova. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanning inglizcha tarjimasida badiiy san'atlarning berilishi, 2021-yil. – 4b.
5. I.G'ofurov. Tarjima nazariyasi. -Toshkent: – 2012. -135b.